

## NASIRIDDIN AT-TUSIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-276-281>

*Abduvaxobova Gulsara Akromjon qizi*

*ToshDSHU tayanch doktoranti*

*Ilmiy rahbar: Qodirov M.*

*ToshDSHU, “Sharq falsafasi va germevntika”*

*kafedrasi professori, f.f.n.,*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sharq mutafakkiri, serqirra olim Nasiriddin at-Tusiyning ontologik (borliq haqidagi) qarashlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda faylasuf qarashlari bilan yunon faylasuflari va Ibn Sino qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Tusiyning ontologik qarashlarining o‘ziga xosligi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ontologiya, emanatsiya, yunon falsafasi, Islom falsafasi, fazo va vaqt, substansiya, atribut, materiya, shakl va mazmun, modda.

**Аннотация:** Данная статья посвящена онтологическим (о бытии) взглядам восточного мыслителя, разностороннего учёного Насириддина ат-Туси. В ней проводится сравнительный анализ воззрений философа с взглядами греческих философов и Ибн Сины, а также раскрывается самобытность онтологических взглядов ат-Туси.

**Ключевые слова:** Онтология, эманация, греческая философия, исламская философия, пространство и время, субстанция, атрибут, материя, форма и содержание, вещество.

**Abstract:** This article is devoted to the ontological (concerning the nature of being) views of the Eastern thinker and versatile scholar Nasiriddin at-Tusi. It presents a comparative analysis of the philosopher’s views alongside those of Greek philosophers and Ibn Sina, and reveals the distinctive character of at-Tusi’s ontological perspectives.

**Keywords:** Ontology, emanation, Greek philosophy, Islamic philosophy, space and time, substance, attribute, matter, form and content, matter (material).

### KIRISH

Falsafada murakkab va o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan soha bu – ontologiya, ya’ni borliq falsafasi hisoblanadi. Borliq shu qadar turfa xillikka, murakkablikka va shu bilan birga rang-baranglikka egaki, undagi juda ko‘p jihatlar haligacha olim va faylasuflarni bosh qotirishga majbur qilib kelmoqda. Borliqqa turli davrlarda, turli mintaqalarda bir-birini takrorlamaydigan qarashlar paydo bo‘lgan. Agarda, biz aynan musulmon falsafasidan borliq muammosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, borliq masalasi sharq mutafakkirlari uchun anchayin murakkablikka ega hisoblanadi. Sababi o‘rta asrlar sharq falsafasi yunon faylasuflari qarashlari ta’sirida shakllanganligini hisobga

oladigan bo‘lsak, yunon falsafasi va Islom dini o‘rtasida ko‘plab masalalarda ixtiloflar mavjudligiga guvohi bo‘lamiz.

### **ASOSIY QISM**

Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino kabi Nasiriddin Tusiy ham materiya, ya’ni moddani har doim bo‘lgan, hozir ham mavjud va keyin ham bo‘ladi (daxr – mangu, abadiy) deb hisoblagan. Islom falsafasida abadiylik sifati faqatgina Yaratganga xos sifat, deb hisoblanadi. Jism, modda esa o‘tkinchidir. Bir vaqtda paydo bo‘lib, boshqa bir vaqtda zavol topadi. Ruh esa yaratilgan, ammo u abadiy yashaydi, deb talqin etiladi. Shuning uchun musulmon falsafasida moddiyatni abadiy deb biluvchi faylasuflarni daxriylar (“daxr” arabcha – “mangulik”, “abadiylik”) deb atashgan. Shu o‘rinda daxriy deganda, ko‘z oldimizga ateist tushunchasi kelishi noto‘g‘i ekanligini ta’kidlash zarur. Daxriy so‘zining tarjimasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu yerda yer yuzida hayotning mangu ekanligini ta’kidlovchi shaxsga nisbatan daxriy iborasi qo‘llanilganiga guvohi bo‘lamiz. Daxriylarning olamni abadiy deb bilishiga sabab yer yuzida yo‘qlik va borlik hodisasi ketma-ket va uzluksiz davom etishidir. Agarda bu bir-biriga zid bo‘lgan ikki hodisa ketma-ket va uzluksiz, biri ikkinchisini ta’lab qilgan jolda sodir bo‘lsa, demak, yer yuzida hayotning tugashi mumkin emas, degan xulosaga kelishadi [1:27].

Jurjoniyning falsafiy qarashlari Forobiy, “Sof birodarlar” anjumani, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nasiriddin Tusiy va Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniylar dunyoqarashi ta’siri ostida shakllandi. Ular kabi Jurjoniyn ham obyektiv borliqning mavjudligiga shubha qilmas edi, ammo uning kelib chiqishini aqliy yo‘sinda talqin qilib, emanatsiya nazariyasi nuqtayi nazarida turar edi [1:20].

Nasiriddin Tusiy Arastu, Avgustin, al-Kindiy, Ibn Sino, Nosir Xisrav, Faxriddin Roziy, Dekart, Leybnits, Toland, Boshkovich, Yum, Fixte, Kant, Gegellar singari relyatsion konsepsiya vakili hisoblanib, ularning fikricha, fazo – moddiy dunyoning tarkibiy tuzilishi tartibining namoyon bo‘lishi, jismlaming o‘zaro joylashish o‘rinlari va moddiy narsalarning mavjudligi tartibini ifodalaydi. Fazo – juz’iy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga bo‘g‘liqdir; materiya fazoning mavjudligi uchun asosiy vositadir; fazo – nisbiydir. Vaqt esa materiyaning atributi (ajralmas xususiyati), u materiyadan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas, vaqt munosabatlari nisbiydir, vaqtning davomiyligi moddiy ob’ektlarning o‘zaro aloqadorligiga, hisob sistemasiga bog‘liqdir. Hozirgi zamonda borliqning turli tashkiliy struktura darajalariga aloqador bo‘lgan fizik, kimyoviy, geologik, biologik, fiziologik, ijtimoiy (sotsiologik), psixologik fazo va vaqt haqidagi konsepsiyalar ham yaratilmoqda. Bunday konsepsiyalarda olamning tuzilishi jihatdan xilma-xilligi va birligi, ko‘p qirraliligi va cheksizligi, murakkabligi va nihoyasizligi asoslanmoqda [1:23].

Tusiyning borliq haqidagi qarashlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, undagi barcha borliqdagi narsalarning asosi Yagona Yaratuvchi Allohga borib taqalishi va qolgan narsalarning Undan kelib chiqishi nazariyasi Islom dini ta’sirida shakllangan bo‘lsa, aynan shu jarayondagi jilovlanish, emanatsiya nazariyasining kelib chiqishi ham qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. At-Tusiyning ontologiyasida birinchilardan

evolyutsiyaviy g‘oyalar keltirilgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, olamda avvaliga, asos elementlar bo‘lgan. So‘ngra, ulardan minerallar, o‘simliklar, hayvonlar va odamlar paydo bo‘la boshlagan. Boshida xudoyi taolodan birinchi aql paydo bo‘lgan. So‘ngra birinchi aqldan to‘rt unsur paydo bo‘lib, ulardan minerallar va o‘simliklar, hayvonlardan esa inson paydo bo‘lgan. Inson o‘zini bir-necha bosqichlar orqali molik darajasiga yetqazadi va o‘z zotida haq subhonani mujassam etadi. Ana shuni hukamolar farz doirasi deyishadi. Min al-mabdo va ila-l-ma‘od (avvaldan oxirga qaytish) [2:101]. Tusiyning fikricha, vaqtning boshlang‘ich nuqtasi Yaratgan tomonidan belgilangan va shundan boshlangan. Xuddi shunday uning oxiri ham Yaratganga bog‘liq. Ularning fikricha, vaqt bu – alohida bo‘linmas lahzalarning o‘z vaqtida sodir bo‘lish birligidir. Vaqtning bu bo‘linmas daqiqalari – ikki bir-biriga zid bo‘lgan hodisalarni: yo‘qlik va paydo bo‘lish hodisalarini vujudga keltiradi. Va bu hodisalar uzluksiz, davomiy va birin-ketin yuzaga keladi. Har bir narsa o‘z vaqtida, ya’ni ma’lum zamon ichida sodir bo‘ladi, shu sababli ham hech bir voqea-hodisani o‘z vaqtida sodir bo‘lmagan, deb xulosa qilib bo‘lmaydi. Bundan tashqari bir vaqtning o‘zida ham harakat, ham harakatsizlik sodir bo‘lishi mumkin emas. Xuddi shu singari paydo bo‘lish hamda zavol topish ham bir vaqtning o‘zida emas, balki birin-ketin sodir bo‘ladi. Bu qoidaga asoslanib, Tusiyn ketma-ket sodir bo‘luvchi voqea-hodisalar vaqtni tashkil qiladi, degan g‘oyani ilgari surgan. Va albatta, bu ikki bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar bir-biriga zid bo‘lishiga qaramay biri ikkinchisini talab qiladi. Bularning hech biri yolg‘iz holda vaqtning harakatlanish jarayonini yuzaga keltira olmaydi. Ular bir-biriga zid bo‘lishiga qaramay, bir-biriga bog‘liq va o‘zaro aloqador hisoblanadi. Ya’ni ular o‘rtasida dialektik jarayon sodir bo‘ladi. Tusiyn vaqtni davrlashtirishda xuddi Arastu singari o‘tmish, hozir va kelajak tushunchalarini kiritadi. Hozir sodir bo‘layotgan hodisalar vaqt o‘tishi bilan o‘tmishga yoki kelajakka aylanishi mumkin.

Tusiyn metafizikani “Ilohiy ilm” deb nomlaydi. Bu ilm sohasida Tusiyn Allohning borlig‘i va birligining isboti, ma’naviy substansiyalarning isboti, paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa va hodisalar sistemasi va ularning mutlaq borliqqa (Allohga) nisbati va boshqa mavzularni muhokama obyektiga aylantiradi. Mutafakkirning “Axloqi Nosiriy” asari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy masalalarga, balki borliq va bilim haqidagi masalalarga ham bag‘ishlanadi. “Axloqi Nosiriy” asarida muallif Allohni mohiyat, Undan o‘zga narsalarni esa tasodif deb hisoblaydi. Ya’ni, agar mavjudligi boshqa mustaqil narsaga bog‘liq bo‘lsa, unda bunday narsalar tasodif deb ataladi, agar u mustaqil bo‘lib, boshqa mustaqil narsaga bog‘liq bo‘lmasa, u mohiyat deb ataladi. Ya’ni nafs tasodif bo‘lmasa, u mohiyatdir [7]. Asarda muallif ta’kidlashishicha, Xudodan birlik mahsuli sifatida kelib chiqadigan o‘z-o‘zini bilish natijasi bo‘lgan “birinchi aql” maydonga chiqadi. “Birinchi aql” vojbul vujud bo‘lganligidan xudoni idrok etadi va undan “ikkinchi aql” kelib chiqadi, negaki, u ayni zamonda o‘z-o‘zini bilganligi uchun mumkin ul-vujud hamdir [2:25]. Shuning uchun undan o‘z moddiyligi bilan va unga muvofiq keladigan shakl bo‘lgan ruh sifatida oliy samoviy doira kelib chiqadi. “Ikkinchi aql” o‘z navbatida kelgusida keladigan doiraning ruh va jismini, hamda undan ham pastki doirada joylashib o‘zini boshqarib turuvchi doira bo‘lgan “uchinchi aql” ni keltirib chiqaradi va hokazo. Shunday kelib

chiqishlar tizimi bo‘lgan emanatsiya “faol aql” bilan tugallanadiki, u oy ostidagi dunyoda mavjud bo‘lgan insoniy ruh va to‘rt unsur borligining sababi – “paydo bo‘lish va zavol topish dunyosi” sifatida maydonga chiqadi. Tusiy fikriga ko‘ra, modda beshta turga ega. Bular “al-modda” – المادة (“materiya”), “ash-shakl” – الشكل (“shakl”), “al-jism” – الجسم (“tan”), “an-nafs” – النفس (“jon”) va “al-aql” – العقل (“aql”). Shunday qilib, substansiya umuman olganda mavjudlikning birinchi qismini tashkil qilishi kerak, shuning uchun mohiyat kategoriyalar tartibida birinchi o‘rinda turishi kerak. Ikkinchi o‘ringa u tasodifiy toifalarni qo‘yadi, ular mohiyatdan farqli o‘laroq, o‘zgaruvchanlik bilan bog‘liq bo‘lib, qolgan to‘qqiz toifaga xosdir [4:23].

Islom falsafa an‘anasida muzokara mavzularidan biri bo‘lgan neoplatonizmga asoslangan sudur yoki kosmik aqllar nazariyasi (emanatsiya) Tusiy tarafidan ham koinot yaratilishining vujudga kelish jarayoni kabi muzokara obyektiga aylantirilgan. Lekin Tusiyning bu nazariyaga ba‘zi asarlarida shubha bilan qaragani, ba‘zilarida esa bu nazariyani qabul etmaganini ko‘rish mumkin. “Tajrid al-e‘tiqod” nomli asarida bu nazariyaga shubha bilan qaragan faylasuf “Fusus” nomli islom kalomiga doir yozgan boshqa bir asarida sudur nazariyasini tamomila rad etadi. Aristoteldan farqli o‘laroq, Tusiy materiyani zarurat, lekin imkonning shakli deydi. Tabiiy jismlarning mavjudligida materiya har doim ramkaga ega, u har doim qandaydir shaklga ega. Tusiyning borliq haqdagi qarashlarida peripatetik va teologik an‘analar izlari bor. U borliq va mohiyat o‘rtasidagi munosabatda peripatetik falsafa tarafdori bo‘lgan. Shuningdek, u emanatsiya nazariyasining borlik-yo‘qlik, birlik-ko‘plik kabi jihatlarida nomuvofiqliklar borligini ta‘kidlab, bu nazariyani to‘g‘ri emas degan xulosaga keladi [8]. “Ravzat-ut-tasmim” risolasida tabiat va Xudoning mutanosibligida quydagicha fikr bayon etgan: “Ollohi taolo hamesha xoliq buvad va chun xoliq gufti, maxlut ham boyad buvad, ya’ne in olam ham xud lozim boshad. Pas hargiz nabuvad, ki olam nabud”. (Alloh taollo hamisha xoliqdir va uning xoliqligi haqida so‘z yuritdingmi, uning maxlutligini ham unutm, ya’ne shu olamning lozimligini ham unutm). Mazkur iqtibosda, borliq hodisalari mas‘alalari (Oy-u quyosh tutilishi, qor, yomg‘ir, yulduzlar harakati, shamol, do‘l, yashin, yer silkinishi, yorug‘likning ko‘rinishi) materialistik nuqtayi nazari jihatidan tadqiq etilgan. Ammo Tusiy borliq falsafasini muayyan bir mavqeyi nuqtayi nazaridan hal etishni o‘z ishining asosiy maqsadi deb bilmaydi va bu tarzda hal qilmaydi [5:931-932] Nasiruddin Tusiy o‘simlik dunyosi va hayvonlar nafsini (ruhiyati) inson jismi bilan aloqador deb hisoblaydi. Ammo notiqlik nafsini inson jismiga aloqador deb bilmaydi. Chunki bu fikrda bir narsaga alohida e‘tibor qaratish lozimki, har bir shaxs xohlagan vaqtda notiq bo‘lmaydi. Bu kasbni egallash uchun ko‘p yillik tajriba, bilim, malaka va mehnat lozimdir [5:932].

Materiya mavjud asos sifatida, har qanday narsani yo‘naltirishning boshlanishidir. Inson o‘z harakati bilan materiyadan bir shaklni olib, unga boshqa shaklni berishi mumkin. Masalan, kulol loydan idish yasaydi. Bu yerda loy materiya, u asos hisoblansa, masalan, lagan o‘ziga xos shakldir. Lekin kulol loyga boshqa turdagi shaklni berishi mumkin, masalan, loyga laganning ko‘rinishini emas, balki kosa ko‘rinishini berishi mumkin. Bularning barchasi ya’ni loy, mum, marmar va boshqa moddalar narsalarning asosi sifatida mustaqil mavjudlikka ega. Ular istalgan vaqtda

mavjud bo‘lishi mumkin. Moddiy narsa, materiya shakldan ustunlikka ega. Shakldan oldingi materiyaning afzalliklari har qanday salbiy hodisalardan oldin mohiyatning afzalliklari bilan bir xildir. Materiya bo‘lmay, materiya tufayli u biror narsaga aylanadi. Mutafakkir substansiyani zarur deb hisoblab, uning abadiy ekanligini tasdiqlash bilan chegaralanadi, ya’ni substansiya avvaldan bo‘lgan, bor va bo‘ladi so‘zlari bilan xarakterlanadi. Tusiylar fikriga ko‘ra, qaysi ish yoki harakat yaxshi, qaysi biri yomon ekanligini faqat inson aqligina aniqlay oladi. Faylasuf olim Muhammad Nazarovich Boltaev o‘zining yirik monografik tadqiqotida Tusiyni Umar Hayyom izidan borib, ma’lum diniy g‘oyalarga qarshi to‘rtliklar yozgan deb ko‘rsatadi [6:600].

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Nasiriddin at-Tusiyning ontologik qarashlarini tahlil qilish jarayonida bir qator muhim xulosalarga kelish mumkin.

Birinchi, Tusiyning borliq haqidagi ta’limoti ikki asosiy manba — yunon falsafasi va Islom diniy-falsafiy an’anasi — ta’sirida shakllangan. Arastu va Plotinning metafizik g‘oyalari bilan Ibn Sino peripatetizmini o‘zida uyg‘unlashtirgan Tusiylar bu ikki yo‘nalish o‘rtasida o‘ziga xos muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Aynan shu ikki an’ananing sintezi uning ontologiyasini o‘ziga xos va betakror qiladi.

Ikkinchi, Tusiyning materiya va substansiya haqidagi qarashlari e’tiborga loyiq. U materiyaning abadiy, mustaqil va shakldan ustun deb hisoblagan. Aristoteldan farqli o‘laroq, materiyaning zarurat, lekin imkonning shakli sifatida talqin etishi Tusiyning o‘ziga xos ontologik pozitsiyasini ko‘rsatadi. Substansiyaning besh turi – materiya, shakl, tan, jon va aql – tasnifi esa uning borliq strukturasi sistemali yondashuvini namoyon etadi.

Uchinchi, emanatsiya nazariyasiga munosabatda Tusiyning qarashlari ziddiyatli va rivojlanib boruvchi xarakterga ega ekanligi kuzatiladi. “Tajrid al-e’tiqod” asarida bu nazariyaga shubha bilan qaralgan bo‘lsa, “Fusus” asarida u tamomila rad etiladi. Bu holat faylasufning dogmatik fikrlashdan yiroq, erkin ilmiy izlanish yo‘lidan borgan ijodkor mutafakkir ekanligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi, Tusiyning fazo va vaqt konsepsiyasi relyatsion yondashuv asosida qurilgan bo‘lib, bu uni Arastu, Ibn Sino va keyinchalik Leybnits kabi buyuk mutafakkirlar bilan bir qatorga qo‘yadi. Vaqtni materiyaning ajralmas atributi sifatida tushunishi, uni o‘tmish, hozir va kelajak toifalariga bo‘lishi hamda qarama-qarshi jarayonlarning dialektik birligi g‘oyasi Tusiylar ontologiyasining ilg‘or jihatlari sifatida baholanishi mumkin.

Beshinchi, Tusiylar borliq falsafasini qat’iy bir mafkuraviy pozitsiya doirasida hal qilishni maqsad deb bilmagan. Uning “Ravzat-ut-tasmim” va “Axloqi Nosiriy” asarlarida materialistik va teistik qarashlarning uyg‘un tarzda mavjudligi buning yaqqol dalilidir. Bu esa Tusiyni tor mazhabiy chegaralardan yuqori turuvchi universal mutafakkir sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Shunday qilib, Nasiriddin at-Tusiyning ontologik qarashlari o‘rta asr sharq falsafasida mustaqil va original o‘ringa ega bo‘lib, uning ta’limoti nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi falsafiy rivojlanish uchun ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Tusiy o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, falsafani barcha mavjud narsalar haqidagi bilimlarni qamrab oluvchi fan sifatida ta‘riflaydi. U falsafani predmetini belgilab yozadi: “Hikmat dar urfi ahli ma‘rifat iborat ast az doistani chizho chunone ki boshad va qiyom namudan ba korho chunon ki boyad ba qadri istetoat to nafsi insony dar asli vujudi xud bo gumoneke mutavachchehi on ast, birasad”. Ya‘ni, “Ahli ilmlar fikricha, hikmat, borliqning zamirida inson qalbi bo‘lgan darajada, unga g‘amxo‘rlik qilib, narsalarni borligicha istash va kerakli ishni qilishdan iboratdir”. Muhammad Nazarovich Boltaevning xulosalariga ko‘ra, ushbu ta‘rifning birinchi qismi maqbuldir, chunki u haqiqatning o‘zida mavjud bo‘lgan obyektlar dunyosini bilish degan to‘g‘ri fikrni ifodalaydi. Ushbu ta‘rifning ikkinchi qismi Fransuz faylasufi Rene Dekardning mashhur tezisiga o‘xshash: “Men o‘ylayapmanmi, demak men borman”. Falsafaning nazariy va amaliy faoliyatdan iborat bo‘lganini tushungan Tusiy bu ilm sohasini avvalo nazariy va amaliy qismlarga ajratadi. Aslida bunday bir tasnifotning ontologik asoslari mavjud. Falsafani butun borliqlar mohiyatlarini ochib beradigan ilm bo‘lganini tushungan Tusiy bu ilmni borliq qismlariga muvofiq holda tasnif etadi. Nazariy falsafa asos o‘laroq metafizika, riyozat va tabiat ilmlaridan iboratdir. Bu yerda har bir ilm sohasining oldida bir nechta ilm qismlari mavjuddir. Ilohiyot va falsafa ilmlari metafizika ilmining asoslarini tashkil etgan ilm sohalaridir. Umuman olganda, aniq fanlar bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borgan faylasuf barcha fikrlarini mantiqiy jihatdan asoslab berishgan harakat qilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тураев. Б.О. Пространство. Время. Развитие. – Т.: Фан, 1992.
2. Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили.– Т., 2014.
3. Рагими. Общая характеристика произведения «Ахлагі Насири» (Насирова этика) хаджи Насреддина Туси. – Алматы: Вестник КазНПУ, 2012.
4. Кенжаева Л. Логическое учение Насриддина Туси (на основе его трактата «Асас ул-иктибас») Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Душанбе, 2019.
5. Norkuchkarov Sh. Sh. Nasiruddin Tusi and his place in the history of civilization of the peoples of the east // Galaxy international interdisciplinary research journal Vol. 9, Issue 12. – Т., 2021.
6. Болтаев М. Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн-Сины и его школы. – Душанбе: Ирфон, 1965.
7. Рагими Л. Общая характеристика произведения «Ахлагі Насири» (Насирова этика) хаджи Насреддина Туси. Вестник КазНПУ 2012. Алматы. <http://www.allbest.ru/>
8. <https://islamansiklopedisi.org.tr/tusi-nasiruddin>